

XALQ TABOBATIDA DORIVORLIK XUSUSIYATIGA EGA BO‘LGAN HAYVON MAHSULOTLARIDAN FOYDALANISH

Raxmonov Rashit Raximovich

Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot
universiteti dotsenti

Otamurodova Maxsuna Eshmurodovna

Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti
o'qituvchisi

Annotatsiya:Maqolada xalq tabobatida dorivorlik xususiyatiga ega bo‘lgan hayvon mahsulotlaridan foydalanish haqida so‘z boradi. Ayrim kasalliklarni davolashdagi hayvon organlari ularning foydali xususiyatlari va kasallikni davolash usul va vositalari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Dorivor o'simliklar,Ko'hna Rim, Galen, baliq, xloroform, emulsiya, Hindiston, Al-qonun, qoramol, parfyumeriya, farmasevtika, palmitin, limfa, sulfat kislota, gidroliz.

Insoniyat qadim zamonlardan boshlab o'simliklarni shifobaxsh vosita sifatida ishlatib keladi. Dorivor o'simliklar to'g'risidagi ma'lumotlar avloddan-avlodga, faqat og'zaki tarqalgan. Davlatlar o'rtasida savdo-sotiq va boshqa munosabatlar yo'lga qo'yilgandan so'ng ana shu davlatlarda boshqa davlatlardan keltirilgan dorivor o'simliklar hisobiga dorivor o'simliklar mahsulotining turi ko'paya bordi. Yozuv paydo bo'lganidan keyin dorivor o'simliklar to'g'risidagi ma'lumotlar yozma ravishda tarqala boshladi.Ko'hna Rimda Galen va Pliniy Starshiy farmakognoziya bilan ko'p shug'ullangan. Vrach Galen (eramizning 130-yillarida tug'ilgan) farmatsiya va tibbiyot sohasida bir qancha kitoblar yozgan. O'z kitoblarida 304 ta dorivor o'simlik, 80 ta hayvon va 60 ta mineral moddadan olinadigan dorilarni ta'riflagan. Galen o'simlik va hayvon organlaridan tayyorlangan (tarkibida ta'sir etuvchi moddasi bo'lgan) dori turlari bilan bemorlarni davolashni birinchi bo'lib taklif etdi. Bu dorilar hozirgi kunda ham "Galen preparatlari" nomi bilan yuritiladi. Galenning tibbiyot va farmatsiya sohasida yozgan asarlari XIX asrgacha katta ahamiyatga ega bo'lib keldi.

Abu Mansur Muvafaq Hindistonga sayohat qilib, hind tibbiyoti hamda u yerda ishlatiladigan dorivor vositalar bilan tanishadi va bu haqda kitob yozadi. U o'z kitobida 466 ta o'simlik va 44 xil hayvondan olinadigan dorivor mahsulotlarning ishlatilishini ta'riflaydi. 1893- yilda Bokulik farmatsiya magistri Abdul Axundov bu kitobni chuqur o'rgandi va arab tilidagi dorivor mahsulotlarning nomlarini aniqladi.

Abu Ali ibn Sino 1020- yilda 5 tomlik "Al- qonun" ("Tib qonunlari") kitobini yozadi. Bu kitobning II jildi oddiy. V jildi esa murakkab dorilarga bag'ishlangan. Kitobning II jildida o'sha zamonda tibbiyotda ishlatiladigan 811 ta dorivor o'simliklar, ulardan va hayvonlardan olingan mahsulotlar hamda mineral dorivor vositalar ta'riflangan.

Abu Rayhon Beruniy umrining oxirgi yillarida "Kitob as-Saydana fit-tibb", ya'ni "Tibbiyotda farmakognoziya" asarini yaratadi. Bu asarda o'sha davrning sharq tabobatida qo'llaniladigan 674 ta dorivor o'simlik va 90 ta o'simlik mahsulotlari to'g'risida fikr yuritiladi. Bulardan tashqari, "Saydana"da yana 104 ta hayvonlardan olingan mahsulotlar hamda shu vaqtgacha to'g'ri aniqlanmagan 113 ta dorivor o'simliklar haqida ma'lumotlar bor.

Hayvonlar yog'i baliq moyi - *oleum jecoris aselli* Tibbiyotda ishlatiladigan baliq moyi, asosan, treska baliqlari (treska, sayra, pikshi va boshqalar)ning yangi jigaridan olinadi. Treskaning usti kulrang qo'ng'ir dog'li, qorni oqimtir. Tibbiyotda ishlatiladigan baliq moyi olish uchun jigarni ajratib olib, suv bilan yaxshilab yuviladi va pardasi olib tashlanadi. So'ngra tozalangan jigardan maxsus qozonlarda moy ajratib olinadi. Baliq kattalarining uzunligi 1 m, og'irligi esa 50 kg ga yetadi. Baliq jigari baliq umumiy og'irligining 4-7 foizini tashkil etadi.

Kimyoviy tarkibi. Baliq moyi tarkibida vitamin A va D, pigmentlar (lipoxrom), oz miqdorda yod bo'ladi. Moy glitseridlari sifatida fizentol, asselin, olein, eruk hamda 4 ta to'yinmagan bog'lanishga ega bo'lgan terapin va boshqa kislotalarning glitserin bilan hosil qilgan murakkab efirlari uchraydi.

Baliq moyi tarkibidagi lipoxrom moyni chinligini aniqlashda (identifikatsiya qilishda) katta ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagi reaksiyalar qilinadi:

1. Bir tomchi baliq moyini 20 tomchi xloroformda eritib, ustiga bir tomchi konsentrlangan sulfat kislota qo'shilsa, aralashma tezda qo'ng'ir rangga aylanadigan ko'k-binafsha rangga bo'yaladi.

2. 15 tomchi baliq moyini 3 tomchi konsentrlangan nitrat kislota bilan chinni idishda aralashtirilsa, darrov sariq rangga o'tuvchi pushti qizil rang hosil bo'ladi. Bulardan tashqari baliq moyi tarkibidagi vitamin A ga ham sifat reaksiyasi qilinadi. Buning uchun 1 ml xloroformda eritilgan 0,1 g baliq moyiga vismut xlorid eritmasidan 5 ml qo'shilsa, aralashma turg'un bo'lmagan havo rangga bo'yaladi.

Ishlatilishi. Baliq moyi raxit, shirincha, limfa bezlari sili va boshqa kasalliklar hamda yaralarni davolashda ishlatiladi.

Dorivor preparatlari. Vitaminlashtirilgan baliq moyi, baliq moyi emulsiyasi. Baliq moyi shisha idishlarda to'la holda salqin, qorong'i joyda saqlanadi. Aks holda vitamin D yorug'lik ta'sirida parchalanib ketadi.

Spermatset, kashalot yog'i-cetaceum, spermaceti Spermatset yaltiroq, oq modda bo'lib, sutemizuvchilar sinfiga mansub va Atlantika, Tinch hamda Hind okeanlarining tropik qismida yashaydigan kashalotdan olinadigan mahsulot. Spermatset kashalotning bosh va umurtqa suyaklari bo'shlig'idagi yarim suyuq yog' tarkibida bo'ladi. Hayvonning "spermatset qopi" dan olingan yog'ni sovitilsa, qattiq qismi - spermatset ajralib chiqadi. Spermatset suyuq yog'dan sodaning kuchsiz eritmasi bilan yuvib va siqib ajratib olinadi. Bitta kashalotdan 3000 kg spermatset va 15 000 kg suyuq yog' olinadi. Spermatset, asosan, palmitin kislotaning etil spirti bilan hosil qilgan efiridan iborat.

Ishlatilishi. Spermatset analgeziya (og'riq sezgisini yo'qotish) uchun ishlatiladigan emulsiya va ayrim surtmalar tarkibiga kiradi.

Lanolin - lanolinum, adeps lanae Lanolin olish. Qo'y terisi ostidagi bezlar yog' bilan bir qatorda yog'simon modda — lanolin ham ishlab chiqaradi. Teri ustiga chiqqan yog' bilan lanolin junga yopishadi. Junni suv bilan yuvib, yog' va lanolindan tozalanadi. Ana shu junni yuvgan suvdan lanolin olinadi. Issiq suvga soda yoki o'yuvchan ishqorlar qo'shib, qo'y junini yuvilganda emulsiyaga o'xshash suyuqlik ajraladi. Shu suyuqlik sentrifugada aylantirilsa, ishqorlarning suvdagi

eritmasida gidrolizlanmaydigan qo'ng'ir rangli, boshqa moddalar aralashgan badbo'y lanolin yig'iladi. Yog'ning gidrolizlanishidan hosil bo'lgan mahsulotlar esa suvda uchib ketadi. Lanolinni tozalash uchun uni atseton yoki benzolda eritib, filtdan o'tkaziladi, erituvchi haydaladi, natijada suvsiz lanolin — *Lanolinum anhydricum* hosil bo'ladi. Qo'y hidini ketkazish uchun lanolin kaliy permanganat eritmasi yoki faollashtirilgan ko'mir bilan ishlanadi. Lanolin yuqori molekulali, bir atomli polisiklik spirtlar (xolesterin va izoxolesterin)ning yuqori molekulali yog' kislotalari - serotin hamda palmitin kislotalar bilan hosil qilgan murakkab efirlaridan iborat.

Lanolinning chinligini aniqlash (identifikatsiya qilish) uchun xolesteringa sifat reaksiyasi qilinadi. Buning uchun probirkadagi 5 ml konsentrlangan sulfat kislota ustiga probirka chetidan 0,2 g lanolinning 5 ml xloroformdagi eritmasi asta-sekin qo'shiladi. Natijada eritma va kislota uchrashgan yerida ravshan ko'rinadigan qo'ng'ir-qizil rangli halqa hosil bo'ladi. XIDF ga ko'ra suvsiz lanolin bilan bir qatorda suvli lanolin (*Lanolinum hydricum*) ham ishlatiladi, suvli lanolin tayyorlash uchun 70 g suvsiz lanolinga sekin-asta 30 g suv aralashtriladi.

Ishlatilishi. Lanolin turg'un bo'lib odam terisiga tez shimiladi. Shuning uchun farmasevtika va parfumeriyada keng qo'llaniladi. Farmasevtikada surtmalar tayyorlashda asos, kakao moyi bilan shamchalar tayyorlashda esa biriktiruvchi modda sifatida ishlatiladi.

Tabobatda quyidagi kasalliklarni davolashda foydalaniladi.

Burun kasalligini davolash – mol miyasiga mo'miyoni qo'shib surtilsa, foyda qiladi. Tovuq yog'i bilan za'faron bargi qo'shib surtiladi.

Jig'ildon qaynashi – sigir, qo'y yoki echki sutlarini baravar qo'shib, qatiq qilib xaltaga solib, zardobini 5 kun suv o'rnida ichilsa tuzaladi.

Soch o'stirish – eshak tuyog'i kulini boshqa hayvonlar shoxlarining kuliga aralashtirib sirka qo'shib surtilsa, yaxshi ta'sir qiladi.

Jinsiy zaiflikni davolash – 11 dona 5 oylik jo'ja, har birini 1 kunda tuzini kamroq qilib, suvda mil-mil yog'siz qaynatib, 3 ga bo'lib 3 mahal och holda yeyish, suvini qo'shib ichilsa foyda qiladi.

Quloqni davolash – tulki yog‘idan 3 tomchidan 3 mahal tomizilsa, karlikka foyda keltiradi. Takasoqol qaynatmasi tomizilsa, kuchli ta’sir qiladi.

Oshqozon va yo‘g‘on ichakni davolash – takasoqolning ildiz qaynatmasi oshqozon va yo‘g‘on ichak yaralariga 10 kun 3 mahal ovqatdan oldin 3 osh qoshiqdan parhez qilib ichilsa, kutilgan natijani shubhasiz beradi.

Qand kasalini davolash – echki, qo‘y va sigir sutlarini barobar qo‘shib qatiq qilib, 3 mahal 50 grammdan zardobini ichish kerak.

Bel og‘rig‘ini davolash – 3 mahal 2 bug‘doy kattaligiday zirni sutga eritib ichish. Kechasi tovuqni so‘yib tezda ichki shilliq tomonini belga yopishtirib ustiga 10 dona ko‘rpa va bitta gilam yopib, 2 soat yotilsa, terlash natijasida zardob va tuzlar chiqib ketadi. Bu holat kamida 6 marta takrorlansa, bemor to‘liq tuzalib ketadi.

Naslsizlikni davolash – chuchuk miya va kaptar tuxumi yeyilsa ham foyda qiladi.

Sepkilni yo‘qotish –tulki o‘pkasini yupqa qilib kesib yuzga bog‘lab yotilsa yaxshi foyda qiladi.

Ich ketishini davolash – tovuq go‘shini yog‘siz qaynatib, 3 mahal sertuzib qilib yesa ham, foyda qiladi.

Astma (nafas qisishi)ni davolash – tulki o-‘pkasiga piyoz qo‘shib yeyiladi. Nafas qisishiga jiyda, behi damlamasi yordam beradi. Teng miqdorda aralashtiriladi (Muddati 20 kun).

Bo‘shashishni davolash (Falaj) – mol yog‘iga bir xil hajmda asal qo‘shib 3 mahal 1 osh qoshiqdan yeyish kerak. Kaptar bolasining go‘shiti no‘xat suviga solinib zira va za‘faron qo‘shib ovqatdan oldin yeyiladi, 14 kundan keyin surgidori ichilsa tuzaladi, 3 mahal og‘zidan muskat yong‘og‘i tushmasligi kerak.

Ichak yarasini davolash – takasoqol guli va bargini qaynatib, 3 mahal 50 grammdan ichilsa ichak yaralarini yo‘q qiladi.

Pes va moxovni davolash – tipratikan go‘shini qaynatib, suvi bilan 3 mahal 100 grammdan ichish kerak. Chayon po‘stini sirkaga aralashtirib surtish (6 oy davomida).

Moxovga: Tipratikan go'shti qaynatmasini sirkaga aralashtirib surtish talab etiladi (6 oy davomida).

Ko'z kasalliklarining davosi – echki jigarini o'tga qo'yib selini olish, unga tuz, uzun murch sepiladi va ko'zga surmaday surtiladi. Qovurilgan jigarini ham yeydi. Quyvon jigarini ham yuqoridagiday qilib ishlatilsa shifo topadi. Ko'zga oq tushsa, sirka bilan chigirtka unini qo'shib, qovoqqa surtilsa oqlik ketadi (Davolash 18 kun). Ko'zda oq paydo bo'lsa, sarimsoqpiyoz suvini chigirtka uniga qo'shib qovoqqa surtilsa, oqi ketadi.

Tutqanoqni davolash –eshak tuyog'i kulini 3 mahal 1 tabletkaday iliq suv bilan qo'shib ichilsa tuzaladi. Hayvonlar qorin suvini 3 mahal 2 osh qoshiqdan ichilsa, foyda qiladi. Faqat yaxshi bo'lguncha ovqati quyvon va tovuq go'shti, boshqa go'shtlar yeyilmaydi.

O't – davo. To'rt oyoqli hayvonlar o'tining eng kuchlisi sigir o'tidir. O'tlarning hammasi o'tkir tozalovchidir. Erlik va urg'ochilik, ochlik va tashnalik, suvga qonish holati, tinchlik holatiga qarab o'tlar turlicha bo'ladi.

Sigir o'ti jarohatlarni va qattiq og'riqlarni qaytaruvchi malhamlarga qo'shiladi. Takaning o'ti tutsimon ortiqcha etni 3 mahal 2 hafta surtilsa ketkizadi. Takaning o'ti qon tomirlar kengayishiga surtilsa (2 hafta 3 mahal) foyda qiladi. Taka va buqaning o'ti quloqdagi ho'l yaralarga tomizilsa, foyda qiladi. O'tlarning hammasi ko'z xiralashishida surtilsa, foyda qiladi. Ayniqsa yirtqichlar o'tining quritilgani ko'zdan suv oqishi, katarakta va ko'z qorachig'i kengayishiga foyda qiladi. Ko'z uchun o'tlarning eng foydalisi to'rt oyoqli hayvonlar ichida kiyik o'ti, parrandalar o'ti ichida kaklik o'ti, baliqlarning ichida zog'ora baliq o'tidir. Echkining o'ti shabko'rlikka 3 mahal 5 kun tomizilsa foyda qiladi. Buqa o'tiga asal qo'shib orqa yaralarga surtilsa, moyak xaltasining shishlariga chaplansa ham foyda qiladi.

O'tda kuyganni davolash – tuxumni chaqib u bilan bir parcha qo'y yungi ho'llanadi va kuygan joy ustiga qo'yiladi. Bu terisi shilinib ketganlarga ham foyda qiladi, kuygan joyni sovutadi ham uni achishtirmasdan quritadi.

Istisqoni davolash (serroz) – chigirtkani quritib talqonini 3 mahal 1 dirhamdan kapalash kerak (iloji bo‘lsa). Qalampir, yong‘oq, chigirtka, dolchin, sabzi urug‘i, zira – hammasidan 100 gr. dan qo‘shib qovurib, 3 mahal 1 osh qoshiqdan sutga aralashtirib yeyish (15 kun).

O‘pka silining boshqa davolari – echki sutini har kuni 3 mahal 100 grammdan ichilsa ham foyda qiladi.

Ko‘zni davolash – agar pashshani quritib yanchilsa va surmaga qo‘shib ko‘zga surtilsa, kipriklarni o‘stiradi va ko‘rishni kuchaytiradi. Agar xo‘rozning qoni ko‘zga surtilsa, o‘sib ko‘zga tushgan ortiqcha mo‘yni yo‘qotadi. Sassiqqopishakning qoni ko‘zga surtilsa, ko‘zga tushgan oqni ketkizadi (15 kun 3 mahal). Qisqichbaqa ko‘zini o‘yib olib, og‘rigan ko‘zga qo‘yib bog‘lansa, darhol tuzaladi.

Tovuq va xo‘roz – qari xo‘rozlar qaltiroq kasaliga davo. Panjalarini boldiri bilan ezib, ko‘p qaynatib ichilsa, peshob tutilishiga yaxshi shifo bo‘ladi.

Kaptar – qon ketganda kaptarning miya pardasidagi qoni qonni to‘xtatadi. Kaptarning endi uchadigan bolasining go‘shidan bir nechtasini qaynatib yeyilsa, bo‘shashish (falaj) kasali 14 kunda yaxshi o‘zgarish qiladi. Boshdagi qotib qolgan qonlarni ivitib, qonni normallashtiradi. Kaptar qoni miya pardasidan kelayotgan burun qonini to‘xtatadi.

Bug‘i shoxi – kuli ich ketish, qon tuflash va istisqoga (3 mahal 1 tabletkadan kapalansa) foyda qiladi. Kuli ko‘zga surtilsa, ko‘zga tushgan modda to‘xtaydi. Kuli milklarni mustahkam qiladi.

Hayvonotdan olinadigan boshqa dorilar – agar kishining ovozi bo‘g‘ilsa, qo‘y suti bilan 3 kun g‘ar-g‘ara qilinsa, ochiladi. Echki go‘shini yuz falaji va kulanji bor odam yesa, foyda qiladi (12 kun 1 mahaldan). Agar sigir boshini kuydirib, kulini sirkaga olib pes (bahan)ga surtilsa 3 oyda foyda qiladi. Kimki taka o‘tini quritib surma kabi ko‘zga tortsa, hargiz ko‘zi og‘rimaydi. Agar echki o‘tini kamfora suvi bilan qo‘shib tomizilsa tish og‘rig‘iga qarshi katta foyda ko‘radi. Oq echkining buyragini kabob qilib, kabobdan oqqan suvlarni ko‘zga tomizilsa,

yuqoridagi natijani beradi. Kaklikning go'shti issiq holda yeyilsa tutqanoqdan omon qoladi.

Yo'talni davolash – qo'y sutiga yoki sigir sutiga qo'y dumbasi to'g'rab, qaynatib ichilsa ham begumon tuzaladi.

Xulosa qilib aytgandatabiatda dorivor o'simliklar bilan bir qatorda dorivor xususiyatga ega bo'lgan hayvon mahsulotlari xalq tabobatida ko'pgina kasalliklarga shifo bo'ladi. Dorivor xususiyatga ega bo'lgan hayvon mahsulotlaridan turli kasalliklarga, xususan, qand kasali, burun kasalini davolash, soch o'stirish, ko'z kasalliklari, bel og'rig'ini davolash va boshqa kasalliklarga qarshi kurashda ishlatiladi. Kasallikni barcha davosini tabiat ne'matlaridan izlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. H. X. Xolmatov, O'. A. Ahmedov Cho'lpon nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2008y
2. Hoji Mengnazar Rustam o'g'li Toshkent O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyoti 2005-y
3. Nabiev M. SHifobaxsh ne'matlar. Toshkent, 1994 y.
4. Nabiyev M.M. Botanika atlas-lug'ati (O'zbekiston o'simliklari ilmiy va mahalliy nomlarining illyustratsion lug'ati). Toshkent, O'zbekiston SSR. "Fan" nashriyoti. 1969 y. – 254 b.
5. O'ljaboeva N. Xalq tabobati xazinasidan javohirlar. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2009 y.-1136 b.
6. Buhoro viloyatida o'suvchi ba'zi dorivor o'simliklarni madaniy holda Scientific- methodical journal of "Scientific progress"jurnali 2022.4.04
7. Wild medical Plants of Central Uzbekistan. International journal of Biological Engineering and agriculture ISSN:2833-5376 Volume 1 №5 Okt-2022
8. O'zbekiston xom-ashyo bazasi hamda yovvoyi holda o'sadigan va yetishtiriladigan dorivor o'simliklar. Xalqaro ilmiy –amaliy anjuman materiallari 2022- yil May Buhoro

9. O'zbekiston xom-ashyo bazasida yovvoyi holda o'sadigan va yetishtiriladigan dorivor o'simliklarni muhofaza qilish va uning navlarini ko'paytirish .Xalqaro ilmiy –amaliy anjuman materiallari 2022- yil noyabr Buhoro

10. Ixtiofag qushlar bilan bog'liq biozararlanishlar, ularning oldini olish, muhofaza qilish masalalari."Central Asian Journal of Education and Innovation"2023- yil 20.05